



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

EKOTURIZMNING TURIZMDAGI AHAMYATI

Moyidinjonov Rahimjon¹

Kimyo International University

KEYWORDS

Ekoturizm, turizm sohasi, atrof-muhit, barqaror taraqqiyot, mahalliy aholi, iqtisodiy faoliylik, tabiiy resurslar, ekologik madaniyat, mas'uliyatlari sayohat, tabiatni asrash.

ABSTRACT

Ushbu maqolada ekoturizmning turizm sohasidagi ahamiyati yoritilgan. Ekoturizmning atrof-muhitni asrash va barqaror taraqqiyotga xizmat qilishi haqida so'z yuritilgan. Mahalliy aholining iqtisodiy faolligini oshirishdagi roli ham tahlil qilingan. Ekoturizm orqali ekologik madaniyat shakllanishi ta'kidlangan. Muallif ekoturizmni kelajak uchun muhim yo'nalish sifatida baholaydi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15416959**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Kirish

Bugungi globallashuv jarayonida turizm sohasining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Turizm nafaqat iqtisodiy daromad manbai, balki xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarini mustahkamlovchi, insonlarni dunyoqarashini kengaytiruvchi omillardan biridir. Shu bilan birga, so'nggi yillarda turizmning yangi yo'nalishlari – madaniy, sog'lomlashiruvchi, ekstremal, va ayniqsa ekoturizm keng rivojlanmoqda. Ekoturizm – bu atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda, tabiiy muhitda sayohat qilish orqali dam olish, bilim olish va shu bilan birga tabiatni asrashga xizmat qiluvchi turizm turidir.²

Ekoturizm so'zining o'zi ham "ekologiya" va "turizm" tushunchalarining uyg'unligidan kelib chiqqan bo'lib, bu yo'nalish tabiat bilan uyg'unlikda yashash, undan oqilona foydalanish va tabiiy boyliklarni asrab-avaylashni targ'ib etadi. Ekoturizm boshqa turizm turlaridan o'zining maqsadi, mazmuni va yondashuvi bilan ajralib turadi. Bu turda asosiy e'tibor tabiatni ko'z bilan tomosha qilish, noyob ekotizimlar, o'simlik va hayvonot dunyosini o'rganish, ekologik ongni shakllantirish va mahalliy aholining hayot sifatini yaxshilashga qaratiladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ham ekoturizmga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Xususan, tog'li hududlar, milliy tabiat bog'lari, qo'riqxonalar va tabiiy landshaftlarga ega hududlar

¹ Kimyo International University in Tashkent 3-bosqich talabsi

² Mamajonov A. *Ekoturizm asoslari*. – T.: "Fan va texnologiya", 2019. – 210 b.

ekoturizm uchun qulay sharoit yaratmoqda. Bu esa, bir tomonidan, ekologik muhitni asrash, boshqa tomonidan esa, hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini bermoqda. Shunday ekan, ekoturizmni rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolada ekoturizmning mazmun-mohiyati, turizm sohasidagi o'rni, uning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati, ekologik madaniyatni shakllantirishdagi roli hamda O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari yoritib beriladi.

Adabiyotlar tahlili

Ekoturizm sohasida olib borilgan tadqiqotlar, uning nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligiga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatishini isbotlab bermoqda. A. Karimovning "Ekoturizm va uning istiqbollari" nomli asarida (2022) ekoturizmning mohiyati, asosiy tamoyillari va u orqali turizm sohasida erishilayotgan natijalar atroficha yoritilgan. Muallifga ko'ra, ekoturizm nafaqat sayyoohlar uchun ekologik toza hududlarda hordiq chiqarish vositasi, balki tabiiy resurslardan oqilona foydalanish omilidir.

Shuningdek, D. Qodirovaning "Turizm va ekologik barqarorlik" (2021) nomli tadqiqotida ekoturizmning tabiiy muhitni muhofaza qilishdagi roli tahlil qilinib, ushbu yo'nalish mahalliy aholining ekologik madaniyatini oshirishda ham muhim vosita ekani qayd etilgan. Unda ekoturizmni tashkil etish jarayonida ekologik me'yorlarga amal qilish, tabiiy muhitga zarar yetkazmaslik asosiy tamoyil sifatida belgilangan.

Xalqaro miqyosda esa, D. Weaverning "Ecotourism" (2008) asari ekoturizm nazariyasining ilmiy asoslarini ishlab chiqqan eng muhim manbalardan biridir. Ushbu asarda ekoturizmning rivojlanish tarixidan tortib, zamonaviy yondashuvlargacha bo'lgan masalalar tizimli tarzda yoritilgan. Muallif ekoturizmni ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi tizim sifatida ko'radi.





1-rasm. Turizm va madaniy meros vazirligi

O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan siyosat ham dolzarb mavzulardan biri bo'lib, "O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish strategiyasi-2030" hujjatida ekoturizmni ustuvor yo'nalish sifatida rivojlantirish rejalashtirilgan. Ushbu strategik hujjatda tabiiy hududlardan oqilona foydalanish, infratuzilmani rivojlantirish, mahalliy aholining turizm jarayonidagi ishtirokini ta'minlash orqali barqaror turizmga erishish ko'zda tutilgan.

Ko'rsatkich	Ma'lumotlar	Izoh
Dunyo bo'yicha ekoturizm bozorining ulushi	20-25%	Ekoturizm sohasidagi umumiyo'z bozor ulushi
Ekoturizmning yillik o'sish sur'ati	10-15%	Ekoturizmning global o'sish sur'ati
Ekoturizm bilan shug'ullanuvchi davlatlar	70+	Ekoturizmni rivojlantirayotgan davlatlar soni
Ekoturizmning iqtisodiy ta'siri	\$1.6 trln (global turizm daromadlari)	Ekoturizm turizmning umumiyo'z daromadlariga qo'shadigan ulushi
Ekoturizmning jahon miqyosidagi bozor qiymati	\$250 milliard (2020)	Ekoturizmning yirik iqtisodiy sektori
Davlatlar o'rtasidagi ekoturizmni rivojlantirishdagi eng faol hududlar	Yevropa, Shimoliy Amerika, Janubiy Osiyo	Bu hududlarda ekoturizm eng faol rivojlanmoqda

Ko'rsatkich	Ma'lumotlar	Izoh
Ekoturizmda ishtirok etadigan sayohatchilar soni	150 million (yiliga)	Ekoturizmga yo'naltirilgan sayohatchilar soni

Umuman olganda, tahlil etilgan adabiyotlar ekoturizmning ekologik muhofaza, iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni yuksak ekanini ko'rsatadi. Bu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalar ekoturizmning turizm sohasidagi ahamiyatini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

Metodologiya

Mazkur ilmiy maqola ekoturizmning turizmdagi o'rni va ahamiyatini aniqlash, uning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatlardagi ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, tahliliy va taqqoslash metodlari qo'llanildi. Ekoturizmga oid nazariy asoslar mavjud ilmiy adabiyotlar, xalqaro tajriba hamda O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar asosida tahlil qilindi.

Tadqiqotda deskriptiv (ta'riflovchi) metod asosida ekoturizm tushunchasi, uning rivojlanish bosqichlari, asosiy tamoyillari va vazifalari o'rganildi. Tahliliy yondashuv orqali ekoturizmning mahalliy va global darajadagi amaliyotdagi ahamiyati tahlil qilindi hamda turizmning boshqa turlaridan farqlari yoritildi.

Shuningdek, empirik ma'lumotlar asosida ekoturizm yo'nalishida amalga oshirilayotgan loyihibar, mahalliy hududlarda olib borilayotgan tadbirlar va ularning natijalari o'rganildi. Statistik ma'lumotlar tahlili orqali O'zbekistonda ekoturizmning rivojlanish dinamikasi, turistlar oqimi, infratuzilmaning holati va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlashtirildi.

Tadqiqot davomida shuningdek, ekoturizm sohasida mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ham ko'rib chiqildi. Bu jarayonda diagnostik tahlil usulidan foydalanildi.

Asosiy qism

Ekoturizm bugungi kunda insoniyat oldida turgan eng dolzarb masalalardan biri — atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va barqaror taraqqiyotga erishish yo'lida muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Turizmning an'anaviy shakllari ko'pincha tabiatga zarar yetkazgan bo'lsa, ekoturizm buning teskarisidir. U inson bilan tabiat o'rtasida uyg'unlik va muvozanatni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, nafaqat dam olish, balki o'rganish, tushunish, qadrlash va asrashni o'z ichiga oladi.³

³ Rasulov X. *Turizm va uning zamonaviy yo'nalishlari*. – T.: Iqtisodiyot, 2020. – 188 b.



Ekoturizmning asosiy maqsadi – sayyoohlarga noyob ekotizimlar, hayvonot va o'simlik dunyosi, madaniy meros ob'yeqtchlari haqida ma'lumot berish orqali ekologik ong va mas'uliyatni shakllantirishdir. Masalan, biror milliy bog'ga yoki qo'riqxonaga boruvchi sayyoh faqatgina tabiatdan bahramand bo'lib qolmaydi, balki u yerda yashayotgan biologik xilma-xillik haqida o'rganadi, ekologik muvozanatni buzmaslikka harakat qiladi, chiqindilarni qoldirmaslik, hayvonlarga xalaqit bermaslik, o'simliklarni uzmaslik kabi qoidalarga rioya qiladi. Bu esa, o'z navbatida, sayyohning ekologik madaniyatini oshiradi.



1-rasm. Baykalning asl tabiati. Chivyrkuiskiy ko'rfaqidagi Zmeinaya ko'rfazi ([Buryatiya](#))

Ekoturizmning turizm sohasidagi o'rni va ahamiyati ko'p jihatdan uning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik foydasi bilan bog'liqdir. Iqtisodiy nuqtayi nazardan, ekoturizm chekka hududlarda yashovchi aholiga daromad manbai yaratadi. Bu yo'nalishdagi turistik xizmatlar – ekologik ekskursiyalar, mahalliy ovqatlar, hunarmandchilik mahsulotlari, yo'riqchilik xizmati va boshqalar orqali mahalliy aholi barqaror daromadga ega bo'ladi. Shu bilan birga, sayyoohlarning ko'payishi yangi ish o'rinalining paydo bo'lishiga, mahalliy infratuzilmaning

rivojlanishiga xizmat qiladi.⁴

Ijtimoiy jihatdan esa, ekoturizm orqali mahalliy aholi o'z madaniyati, qadriyatlar, urfodatlarini sayyoohlarga namoyish qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu o'z navbatida xalqning madaniy merosini asrash, yosh avlodda milliy iftixor hissini uyg'otish va dunyo miqyosida milliy qadriyatlarni targ'ib qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, ekoturizm orqali ijtimoiy faoliy va hamkorlik kuchayadi, mahalliy aholining tashabbuslari qo'llab-quvvatlanadi.

Ekologik foyda esa eng asosiy natijalardan biridir. Ekoturizmning rivojlanishi natijasida tabiat qo'riqxonalarining maqomi mustahkamlanadi, muhofaza etilayotgan hududlarga e'tibor ortadi, yovvoyi tabiatning saqlanishi uchun zarur mablag'lar ajratiladi. Bu bilan insoniyat va tabiat o'rtasida barqaror munosabat vujudga keladi.⁵



2-rasm. Hisor tog' tizmalari

Hozirda O'zbekistonda ham ekoturizm salohiyati yuqori bo'lgan hududlar ko'p. Jumladan, Zarafshon va Hisor tog' tizmalari, Ugom-Chotqol milliy bog'i, Qizilqum cho'li, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi, Buxoro va Xorazm viloyatlaridagi qadimiy me'moriy yodgorliklar va tabiiy landshaftlar ekoturizm uchun qulay manzillar hisoblanadi. Shu hududlarda ekoturizm infratuzilmasini rivojlantirish, mahalliy aholining bu yo'nalishga bo'lgan qiziqishini oshirish, ekologik ta'limni kuchaytirish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, ekoturizmni rivojlantirishda ba'zi muammolar ham mavjud. Masalan, ayrim joylarda infratuzilmaning yetarli emasligi, ekologik madaniyat darajasining pastligi, malakali gid va yo'riqchilarining kamligi, qo'riqlanadigan hududlarda monitoring tizimining zaifligi

⁴ Sharipov M. *Ekoturizm: nazariya va amaliyot*. – Samarkand: SamDU, 2021. – 142 b.

⁵ Tursunov B. *Ekoturizmning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari* // Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish. – 2022. – №3. – B. 45–49.

kabi muammolar bu soha salohiyatini to'liq ochishga to'sqinlik qilmoqda. Bunday muammolarni hal etish uchun davlat, fuqarolik jamiyati institutlari va xususiy sektor o'rtaсидаги hamkorlik muhimdir.



3-rasm. Parkent tog'lari.

Shunday qilib, ekoturizm – bu oddiy sayohat emas, balki ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarni birlashtirgan, barqaror taraqqiyotga xizmat qiluvchi zamонавиу туризм yo'nalishidir. Uni rivojlantirish orqali insoniyat nafaqat go'zal tabiatdan bahramand bo'ladi, balki uni asrash va kelajak avlodlarga yetkazish imkoniga ham ega bo'ladi.⁶

Muammolar:

Hozirgi kunda ekoturizm sohasi global va mahalliy miqyosda rivojlanib borayotgan bo'lsa-da, uning samarali faoliyat yuritishiga to'sqinlik qilayotgan qator muammolar mavjud. Ushbu muammolarni tahlil qilish orqali ekoturizm salohiyatidan to'liq foydalanishga yo'l ochiladi. Birinchidan, infratuzilma muammolari ekoturizmning keng rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ko'plab tabiiy hududlarga olib boruvchi yo'llarning sifatsizligi, ekologik toza transport vositalarining yetishmasligi sayyoхlar oqimini cheklab qo'yemoqda.

Ikkinchidan, kadrlar tayyorlashdagi kamchiliklar ham dolzarb muammolardan biri sanaladi. Ekoturizm yo'nalishida malakali gidlar, ekologik yo'riqchilar va xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislar yetarli emas. Bu esa turistlarga sifatli xizmat ko'rsatishda muammolar tug'diradi.

Uchinchidan, aholi o'rtaсида ekologik madaniyatning yetarli darajada shakllanmaganligi ekoturizmni barqaror asosda tashkil qilishga to'sqinlik qilmoqda. Ba'zi hollarda mahalliy aholining ekoturistik hududlarda tabiiy muhitga befarqligi, chiqindilarni to'g'ri tashlamaslik

⁶ Karimboyev D. *Barqaror rivojlanish va ekoturizm*. – T.: EkoHayot, 2022. – 116 b.

kabi holatlar ekologik muvozanatni buzmoqda.

To'rtinchidan, moliya va investitsiyalar yetishmovchiligi sababli ekoturizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yangi ekomarshrutlar yaratish, ekologik loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlari cheklangan. Ayni paytda, xususiy sektorning ushbu yo'nalishga yetarlicha qiziqish bildirmasligi ham muammoning bir qismi sanaladi.

Beshinchidan, me'yoriy-huquqiy bazaning to'liq shakllanmaganligi sababli ekoturizm bilan bog'liq faoliyatni tartibga solishda qiyinchiliklar mavjud. Hududiy ekologik zonalarning aniq chegaralanmaganligi, nazorat mexanizmlarining zaifligi bu sohaga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu muammolarni tizimli ravishda hal qilish orqali ekoturizmning turizm sohasidagi o'rni va ahamiyatini yanada kuchaytirish mumkin bo'ladi.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, ekoturizm bugungi kunda nafaqat turizmning bir yo'nalishi sifatida, balki atrof-muhitni asrash, iqtisodiy faollikni oshirish va jamiyatda ekologik madaniyatni shakllantirish vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etayotganini ko'rish mumkin. Ekoturizm tabiatga ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo'lish, resurslardan oqilona foydalanish, inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni saqlab qolish tamoyillariga asoslanadi. Bu esa ekoturizmni boshqa turizm turlaridan ajratib turuvchi asosiy belgilardan biridir.

Zamonaviy sharoitda ekoturizmni rivojlantirish orqali chekka hududlarda yashovchi aholi uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratilmoqda, mahalliy infratuzilma yaxshilanmoqda, xalqning turmush darajasi ko'tarilmoqda. Ayniqsa, ekoturizm mahalliy madaniyatni targ'ib qilish, qadriyatlarni saqlash, milliy merosni avlodlarga yetkazishda katta o'rinnegallaydi. Bu orqali ichki va tashqi sayyohlarning ekologik ongi shakllanadi, ularning tabiatga munosabati o'zgaradi, mas'uliyat hissi kuchayadi.

Shuningdek, ekoturizm ekologik jihatdan barqaror rivojlanishning muhim asosi sifatida qaraladi. U tabiatni muhofaza qilishga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, milliy tabiat bog'lari, qo'riqxonalar, suv va o'rmon resurslarini saqlashda katta rol o'ynaydi. Bu esa ekotizimlarning barqarorligiga, biologik xilma-xillikning saqlanishiga va kelajak avlodlarga sog'lom ekologik muhitni qoldirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda ekoturizmni yanada rivojlantirish uchun bir qator strategik chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur: ekologik ta'lim-tarbiyani kuchaytirish, infratuzilmani zamonaviylashtirish, mahalliy aholi ishtirokini faollashtirish, xorijiy tajribani o'rganish va amaliyotga tatbiq etish muhim vazifalardandir. Shuningdek, ekologik jihatdan xavfsiz va barqaror sayohatlarni rag'batlantirish, davlat va nodavlat tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali ekoturizm sohasi yanada yuksaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Mamajonov A. Ekoturizm asoslari. – T.: "Fan va texnologiya", 2019. – 210 b.
2. Rasulov X. Turizm va uning zamonaviy yo'nalishlari. – T.: Iqtisodiyot, 2020. – 188 b.
3. Sharipov M. Ekoturizm: nazariya va amaliyot. – Samarkand: SamDU, 2021. – 142 b.

4. Tursunov B. Ekoturizmning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari // Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish. – 2022. – №3. – B. 45–49.
5. Xushvaqtov A. Ekoturizm va barqaror rivojlanish: xalqaro tajriba va milliy amaliyat. – T.: Universitet, 2023. – 198 b.
6. Qodirov S. O'zbekistonda turizmni rivojlantirish istiqbollari. – T.: Yangi asr avlodi, 2020. – 123 b.
7. Jahon turizm tashkiloti. Ekoturizm bo'yicha qo'llanma. – Madrid: UNWTO, 2018. – 89 b.
8. Karimboyev D. Barqaror rivojlanish va ekoturizm. – T.: Ekohayot, 2022. – 116 b.
9. Islomova Z. Ekoturizmda ekologik madaniyatning o'rni // Yosh olimlar konferensiyasi materiallari. – 2023. – B. 78–82.
10. Turizm va madaniy meros agentligi rasmiy sayti: www.uzbektourism.uz (murojaat sanasi: 2025-y. 20-aprel).

Foydalanilgan internet manbalari

1. Turizm va madaniy meros vazirligining rasmiy veb-sayti – www.uzbektourism.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi – www.eco.gov.uz
3. Jahon turizm tashkilotining rasmiy sahifasi – www.unwto.org
4. O'zbekiston Milliy axborot agentligi – www.uza.uz
5. "Ekoturizm" mavzusidagi ilmiy maqolalar to'plami – www.sciencedirect.com